

JADIDCHILARNING AMALIY HARAKATLARI**Qosnazarova P.Q**

Nukus davlat pedagogika instituti 09.00.04 ijtimoiy falsafa 2- bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14288452>

Annotatsiya. Maqolada Jadidlarning vujudga kelish sabablari, jadidlar harakatining boshlanish o'chog'i bo'lgan Turkistondagi madrasa va mакtablar tizimida yangi ko'rinishdagi ta'lif-tarbiyani joriy qilish uchun amalga oshirilgan islohotlar, yangilik tarafdoरlariga bo'lgan qarama-qarshiliklar va Chor Rossiyasining hukmronligi natijasida mamlakatdagi og'ir vaziyat tufayli 1905 yildagi birinchi davlat to'ntarishi haqida so'z etilgan.

Tayanch so'zlar: jadid, jadidlar harakati, innovatsiya, ta'lif-tarbiya, ilm, ma'rifat, gazeta, "muttahid" front, feodalizm, davlat to'ntarishi.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ДЕЙСТВИЯ ДЖАДИДОВ

Аннотация. В статье рассказывается о причинах возникновения джадидов, реформах, проведенных для введения нового вида образования в системе медресе и школ Туркестана, очаге джадидистского движения, противоречиях между сторонниками нововведений и первом государственном перевороте 1905 года, вызванном тяжелой ситуацией в стране в результате правления царской России.

Ключевые слова: jaded, движение джадидов, инновации, образование, наука, просвещение, газета, "муттахид" фронт, феодализм, государственный переворот.

THE PRACTICAL ACTIONS OF THE JADIDISTS

Abstract. The article spoke about the reasons for the emergence of the Jadids, reforms to introduce a new form of education in the system of madrasas and schools in Turkestan, the beginning focus of the Jadid movement, contradictions to supporters of innovation and the first coup of 1905 due to the harsh situation in the country as a result of Tsarist Russia's rule.

Key words: jaded, Jadid movement, innovation, education, science, enlightenment, newspaper, "muttahid" front, feudalism, coup d'état.

Jadidlar harakatida ta'lif-tarbiya masalasining boshlanishi avvalo, milliy ozodlik g'oyalarining ildizi edi. Jamiyatda biror bir g'oya o'zining namoyon bo'lishini o'sha jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy tuzumning mahsuli sifatida o'zining ta'sirini ko'rsatib boradi. Jadidlar harakati ham mana shunday o'z davrining reaksiyon g'oyasi edi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy muhitning bir tasodifiy hodisasi bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning natijasi bo'ldi.

Jadidlik o'zi nima edi? Uning namoyon bo'lishi qanday sodir bo'ldi? Jadidlar harakatining ko'rinishlari nimalarda ko'zga tashlandi? Bu harakatning rivojlanishi natijasida jadidlik ta'limoti darajasiga chiqishining o'ziga xosligi nimada?¹. Umuman olganda jadidlar harakatini o'rganish jarayonida tadqiqotchilar ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalarni chuqur o'rgandi.

Jadidlar jamiyatni bir bosqichdan yangi bosqichga olib chiqishning eng qulay yo'li bu ta'lim va tarbiya masalasi ekanini to'laqonli anglab yetdi². Xususan, XIX asrda Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida butun ijtimoiy masalalar (pul birligi, ishlab chiqarish, bozor masalasi, himoya tizimi va boshqaruv prinsipi –X.A.) ketma-ketlikda uning tasarrufiga o'tishi oqibatida xonliklarning mustaqilligi qo'ldan boy berildi.

Natijada mazlum xalqning turmush tarzi tanazzul yoqasiga keldi. Bunday holatga tushgan xalqning ziyorilari bu vaziyatdan faqatgina xalqning farzandlarini tarbiyalash orqali chiqish mumkin degan xulosaga keldi va milliy jadidlik harakatiga tamal toshini qo'ydi. Aynan ularning olib borgan sa'y-harakatlari natijasida Turkistonda jadidlik harakati vujudga keldi. Bu haqda professor Begali Qosimov o'z tadqiqotida jadidlik oqimini ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy tomonlarini bat afsil bayon etgan³.

XIX asrda jadidlar Buxorodagi ilm ahli va ma'rifatparvarlarining orasida dastlab Turkistondagi madrasa va maktablar tizimida yangi ko'rinishdagi ta'lim-tarbiyani joriy qilish uchun tubdan islohotlar lozimligi masalasini o'rtaga tashladi. Biz mana shu islohotlar tarafdarlarini jadidlar, ya'ni yangilik yoki innovatsion g'oyalarning tarafdarlari deb atadik. Jadidlik arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" ma'nosini beradi⁴.

Bu davrda jadidlar harakatiga qarama-qarshi bo'lgan oqim bu feodallar edi. Biz ularni diniy fanatizmga berilgan qadimchilar edi deb, nomlaymiz⁵. O'z davrida vujudga kelgan yangi g'oyalarning tarafdarlarini jadidlar deb nomladik. XIX asr boshida jadidlar Buxorodagi 200ga yaqin madrasalarning ta'limini isloh qilish g'oyasini ishlab chiqdi. Albatta bu g'oyalarning boshida madrasa mudarris Abu Nasr Kursaviy turgan edi.

Ammo mana shu davrda qarama-qarshi g'oya sifatida vujudga kelgan yana bir harakat qadimchilikning tarafdarlari islohotchi mudarrislarni kofirlik va xudosizlikda aybladi. Qadimchilar ta'sirida Buxoro amiri Haydar yangilik tarafdoi bo'lgan mudarris Abu Nasr Kursaviyni zindonga tashlatadi va o'lim jazosiga hukm qiladi. Lekin Abu Nasr Kursaviyning

¹ Herman Vamberi. Ma'rifat yo'lidagi uyg'onish. Tafakkur. 2000. 2-son.B.61.

² D.Alimova. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. Jadidchilik: Islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet. 1999.B.52.

³ B. Qosimov. Jadidchilik. O'zbek tili va adabiyoti. 1990. № 4. B.17.

⁴ Ashurova H. Milliy ma'rifatparvarlikning vujudga kelish omili. Maqolalar.06.10.2020.

⁵ R. Shamsutdinov. Jadidchilik: Haqiqat va uydirma. Muloqot. 1991. № 11. B.56.

tarafdorlari uni zindondan qochiradi. Abu Nasr Kursaviy bir muddat Samarqandda jon saqlab keyin Qozon shahriga ketadi va o'zining ilg'or g'oyalarini Qozonda davom ettiradi. U 1813-yilda vafot etadi.

Bundan ko'rindiki, jadidlar harakatining boshlanish o'chog'i Turkiston zamini ekan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Tatar ma'rifatparvari Ismoil G'aspiralining ilgari surgan jadidlik g'oyalarini dastlab bizning vatandoshimiz Abu Nasr Kursaviy yaratgan edi⁶.

XIX asrning 50-60-yillarida Turkistonda diniy fanatizmga berilish islohotchilik harakati yanada keng tarqala boshladi. Natijada, bu harakatning boshida buxorolik olim, tarixchi va mudarris Marjoniy (1818-1889), G'ijduvon madrasasi domlalari Fozil, Mo'minjon Vobkandi, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turdi. Ular dastlab maktab va madrasalarning islohotini Abu Nasr Kursaviy kabi yangilashni emas, balki ta'limda diniy darslarning ortiqchagini olib tashlash tarafdori bo'lib chiqdi. Maktab va madrasalar islohotchilarining rahnamosi Marjoniy dastlab o'zining dasturida quyidagi asosiy masalalarni o'rtaqa qo'yadi:

- Qur'onagi diniy ilmlarni bilgan holda dinda o'zları erkin fikr yuritsin.
- Har bir kishining birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iyan man qilinsin.
- Madrasalarda o'qitiladigan o'quvchilarning 8-10 daqiqa vaqtini oluvchi va ular uchun foydasiz bo'lган darslar jadvaldan olib tashlansin.
- Mavjud madrasalarda islom dinini to'liq o'rganish uchun aynan Qur'oni karim, Hadisi Sha'rif ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.
- Dunyoviy ilmlar bo'lган falsafa, arifmetika, mantiq, tarix, jo'g'rofiya, xandas, tabobat va boshqa kerakli fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.
- Har bir ishda musulmonlikni Payg'ambar Muhammad alayhissalom davrlaridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Demak, Marjoniy va uning g'oyaviy tarafodorlari-o'z davrining jadidlari, Turkiston musulmon taraqqiyatparvarlari edi. Ular madrasalarda ta'limning islohoti uchun olib borgan sa'y-harakatlari davomida diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart ekanini qat'iy talab qildi⁷. Lekin amirlikning reaktsion siyosati va qadimchilarning ta'siri natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy va uning tarafodorlari Buxoro

⁶ Sh.M. Mirziyoyev. Zamon bilan hamnafas diyor. (Andijon viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvdag'i nutq). Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T., O'zbekiston. 2017.B.17.

⁷ Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyina". 1914. 41-son.B. 970-972

amirligidan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Uning tarafdarlaridan ko'pi amirning zindoniga tashlanib, 75 darradan urilgach tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da beradi⁸.

XIX asrning uchinchi choragi va XX asrning birinchi choragida Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati ta'sirida Turkistonda jadidlar harakati yana keskin kuchayib ketdi. Ammo bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sabab eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdarlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari esa qadimchilar deb atalgan⁹.

O'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zgartirishga kirishgan va yangi hayot shabadasini kiritishga harakat qilganlar esa jadidlar degan nom oldi. Shu tariqa XIX asrning oxiri va XX asrning boshida jadidlar harakati yuzaga kelgan edi. Jadidlar yangi asrning boshlanishi bilan jamiyat avvalgidek ijtimoiy-siyosiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik holatida yashay olmasligini ravshan anglagan edi.

Jadidchilik harakatining namoyandalari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Chor Rossiyasi hukumati tarkibidagi boshqa hududlarning aholisi orasida ham o'zlarining taqdirlarini o'zgartiribgina qolmay, feodalizm tuzumining negizini parchalab yangi bir jamiyatga qadam qo'yishi mumkin ekanini angladi¹⁰.

Chor Rossiyasining hukmronligi natijasida mamlakatdagi og'ir vaziyat tufayli 1905 yilda birinchi davlat to'ntarishi sodir bo'ldi. Aynan bu to'ntarishdan xalqning maqsadi ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, dvoryanlar ixtiyoridagi yer-mulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish edi. Bu to'ntarishning dasturi bilan tanishgan O'rta Osiyo taraqqiyat parvar ziyorilari tatar qardoshlari ortidan, jadidlar harakatiga kelib qo'shildi¹¹. Shuningdek, boshqa davlatlarda bo'lgan to'ntarishlar, xususan, 1907 yildagi Eron burjua to'ntarishi, 1908 yildagi Turkiya burjua to'ntarishi Turkistonda jadidchilar harakatining rasmiylashib kuchga kirishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ular xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdi¹².

Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyandalari jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy o'zgarishlar, ta'lim va tarbiya usulidagi islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni

⁸Istiqlol qahramonlari: Ibrat, Siddiqiy Ajziy, So'fizoda tanlangan asarlar. –T., Ma'naviyat, 1999. www.ziyouz.com/kutubxonasi.B. 159

⁹X.S. Ashurova. Political views of Behbudi and Turkestan jadids. *International conference: "Mahmudkhodja Behbudiy and press of jadids"* Published by Research Support Center Section 1: Journalistic legacy of Mahmudkhoja Behbudiy. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.901>. 49-54.

¹⁰A. Shakuriy. "Jameul hikoyat", – Samarqand, 1911.B. 64-65

¹¹M.Bozorov. Ideas Of Humanity In Central Asian Sufis. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 10, 2020, ISSN: 1475-7192/ 2887- 2892.

¹² X.S. Ashurova. Jadidchilik g'oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar. SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2020. № 6. B.36.

o'zlarining asosiy vazifasi deb bilgan. Ular o'zlarining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga-ya'ni proletariatgagina tayanmagan. Umuman olganda, jadidchilik jamiyat ahlini turli sinflarga bo'lib tashlash tarafdori bo'limgan. Jadidchilik harakati o'zining faoliyatida, hatto qadimchilar bilan ham bitimli ittifoq tuzib, xalq va kelajak avlod manfaati yo'lida kelishib ishslash lozimligini, ya'ni zamonaviy til bilan aytganda turli siyosiy qarashlarga ega bo'lgan xalqning tinch-totuvlikda yashashi va ishlashi g'oyasini o'rtaqa tashlagan edi¹³.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "muttahid" front tuzish g'oyasini ilgari surar ekan: "Ulamo yoki ziyoli va taraqqiy parvarlarimiz boy va avomimiz birlashib din, millat va Vatanning rivoji uchun xizmat etsak", deb yozgan. Aynan jadidlarning muttahid front tuzishga intilganining boisi turli sharoitlar bilan izohlangan. Birinchidan avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyorolar ham chor hukumati tasarrufidagi mustamlakada siquvda bo'lgan kishilar edi. Shuningdek, Turkiston bozorlarida rus savdo va sanoat burjuaziysi hukmon bo'lishi bilan mahalliy ishlab chiqaruvchi hunarmandlarning turli vakillari iqtisodiy jihatdan sina boshlagan edi. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, qaramlik va mustamlaka holatining azobini Turkistonning mahalliy boylari va savdogarlari ham sezsa boshladi. Bunday tarixiy sharoitda jadidlarning fikr-mulohazasiga ko'ra, oddiy xalqning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotini qanchalik yaxshilash zarur bo'lsa, chet el kapitalining iskanjasidan, mustamlakachilikning kishanlaridan ozod bo'lishning muhimligi ham shunchalik kechiktirib bo'lmas vazifalardan edi.

Turkistonda jadidchilarning sa'y-harakati bilan 1906 yilda "Taraqqiy" deb nomlangan gazeta nashr ettirdi. Ular o'zlarining ilg'or g'oyalarini shu gazeta orqali xalqqa tarqata boshladi. Buning natijasida esa oradan ko'p o'tmay "Xurshid", "Shuhrat" singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Bu davrga kelib Turkistonning ko'plab shahar va qishloqlarida jadid maktablari bodroqdek ochildi va ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlar ham keng targ'ib qilindi¹⁴.

Dunyoviy ilmlarning ta'limga kirib kelishi natijasida jadidchilarning mavqeyida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Ular nima haqida gapirishmasin hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, bu vaqtda ishchilar sinfi ham, proletar mafkurasi ham yo'q edi. Tabiatning birlamchi g'oyasini ilgari suruvchi mafkurani deyarli hech kim tushunmas va bilmas edi, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi.

¹³ Martaba Melikova. Towards A Philosophical Analysis Of Alisher Navoi's Heritage. Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Issue-06, 2020. B.1112

¹⁴ Sh.T. Kubaeva. Innovative mentality and thought in civilization development: as the driving force for economic growth// European Journal of Research. Vienna, Austria, №7-8 2018. – P. 92-97. (IMPACT FACTOR: 5.088 IFS 3,8/ UIF 2,7). B. 92-97

Shuning uchun ham jadidchilar harakatining yangi g'oyalar bilan maydonga chiqishi o'sha davrning ruhoniylariga, hukmron sinflariga qarshi tura oladigan madaniyatni yaratish, bir so'z bilan aytganda, innovatsiya edi. Jadidchilarning o'z harakat dasturi bo'lган va ular jamiyatning quyidagi masalalarini hal qilishga e'tibor qaratgan edi:

- Diniy mutaassiblik iskanjasidan qutulish va fanatizmga qarshi kurash.
- Diniy aqidalarga asoslangan O'rta asr maktablarining o'rniga dunyoviy fanlarni o'rgatuvchi zamonaviy maktablarni ochish.
- Ona tilida zamonaviy ilmlarni o'qitishga moslangan yangi usuldag'i maktablarni tashkil etish, feodal davrining maorif tizimini isloq qilish va kadrlar tizimini yangilash.
- Milliy ozodlik g'oyalarini keng xalq ommasiga etkazishda yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot erkinligi uchun kurashish, xalqqa tushunarli bo'lган adabiyot va teatrni rivojlantirish.
- Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash yo'lli bilan ularning taqdirini o'zgartirish kabi islohotlar o'tkazish.
- Ijtimoiy hayotda siyosiy va iqtisodiy jihatdan Turkiston xalqining boylari va savdogarları bilan rus burjuaziyasining orasidagi tafovutni bartaraf etishga erishish.

Shu yo'llar bilan Turkistonda mustamlakachilikka qarshi kurashish jarayoni bilan birlgilikda innovatsion ta'lim-tarbiya masalalarini ham kiritish orqali dasturni amalga oshirish.

Jadidlarning bosh maqsadlaridan biri millat yoshlarini zamonaviy ilmdan bahramand etish bo'lган. Jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol edi. Jadidlar shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'lган.

REFERENCES

1. Herman Vamberi. Ma'rifat yo'lidiagi uyg'onish. Tafakkur. 2000. 2-son.B.61.
2. D.Alimova. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. Jadidchilik: Islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet. 1999.B.52.
3. B. Qosimov. Jadidchilik. O'zbek tili va adabiyoti. 1990. № 4. B.17.
4. Ashurova H. Milliy ma'rifatparvarlikning vujudga kelish omili. Maqolalar.06.10.2020.
5. R. Shamsutdinov. Jadidchilik: Haqiqat va uydirma. Muloqot. 1991. № 11. B.56.
6. Sh.M. Mirziyoyev. Zamon bilan hamnafas diyor. (Andijon viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq). Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T., O'zbekiston. 2017.B.17.

7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat. “Oyina”. 1914. 41-son.B. 970-972\
8. Istiqlol qahramonlari: Ibrat, Siddiqiy Ajziy, So‘fizoda tanlangan asarlar. –T., Ma’naviyat, 1999. www.ziyouz.com kutubxonasi.B. 159
9. X.S. Ashurova. Political views of Behbudi and Turkestan jadids. International conference: “Mahmudkhodja Behbudiy and press of jadids” Published by Research Support Center Section 1: Journalistic legacy of Mahmudkhoja Behbudiy. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.901>. 49-54.
10. A. Shakuriy. “Jameul hikoyat”, – Samarqand, 1911.B. 64-65
11. M.Bozorov. Ideas Of Humanity In Central Asian Sufis. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 10, 2020, ISSN: 1475-7192/ 2887- 2892.
12. X.S. Ashurova. Jadidchilik g‘oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar. SamDU. Ilmiy axborotnama. 2020. № 6. B.36.
13. Martaba Melikova. Towards A Philosophical Analysis Of Alisher Navoi’s Heritage. Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Issue-06, 2020. B.1112
14. Sh.T. Kubaeva. Innovative mentality and thought in civilization development: as the driving force for economic growth// European Journal of Research. Vienna, Austria, №7-8 2018. – P. 92-97. (IMPACT FACTOR: 5.088 IFS 3,8/ UIF 2,7). B. 92-97